

### 3-Mavzu: Qish zavqi

#### Darsning maqsadi:

- Dilfuza Shomalikovaning “Qishning ko‘rpasi” hikoyasi bilan tanishtirish;
- qorning hosil bo‘lishi va tabiatga foydasi haqida ma’lumot berish;
- rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmasini o‘stirish.

**Tayanch so‘zlar:** qish, qor, bobo va nabira suhbatি.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.

#### Darsning borishi:

##### I. Darsning kirish qismi. (*3 daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

**Faollashtiruvchi mashq: so‘z oyini.**

*“Qor” so‘zidagi bitta harfni o‘zgartirib yangi so‘zlar hosil qiling.*

##### II. O‘tilganlarni takrorlash. (*8 daqiqa*)

Fasllar haqida topgan qiziqarli ma’lumotlar so‘raladi va yozgan matn o‘qitiladi.

##### III. Darsning asosiy qismi. (*29 daqiqa*)

**Amaliy topshiriq:** *“Gap tuzish”* mashqi.

“QISH” faslini ifodalab partadoshingizga gaplar tuzing.

Muhokama uchun savollar.

1. Qanday gaplar tuzdingiz?
2. O‘rtog‘ingiz tuzgan gapni aytib bering.

**Mavzuni tushuntirish.**

Darslikda berilgan topishmoq o‘qiladi va javobi topiladi.

Savollarga javob beriladi.

1. Topishmoqning javobini qaysi so‘zlar yordamida topdingiz?
2. Qor qanday hosil bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

Qorning hosil bo‘lishi haqidagi ma’lumot o‘qiladi.

## **Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma'lumot beriladi.**

Dilfuza Shomalikova 1965-yilda tug'ilgan. “**Onam yopgan non**”, “**Tuproq o'ynayotgan bola**” hikoyalar to'plami nashr etilgan.



Dilfuza Shomalikovaning “Qish ko'rpati” hikoyasi navbatma-navbat o'qitiladi. Hikoya yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Qish fasliga qanday ta'rif bera olasiz?
2. Qishning gashti nimada deb o'ylaysiz?
3. Qishning ko'rpati haqida nima deya olasiz? Uning foydasi haqida so'zlab bering.
4. Qishki o'yinlarni sanab bering.
5. O'ylab ko'ring, bolalar qishki o'yinlar o'ynaganda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak?

Matndagi notanish so'zlar ustida lug'at ishi o'tkaziladi.

**gala** – to'da

**qahri** – qattiq achchiqlanish, g'azab.

**zum** – juda qisqa fursat, lahma, on.

**bo'ralab** – shiddat bilan yog'moq.

**termilmoq** – ko'z uzmasdan qaramoq.

### **“Tanlab o'qish” mashqi.**

Bobo va nabira suhbatni o'qiladi.


### **Mashq daftari bilan ishlash.**

Qish faslida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar yoziladi.

Berilgan chizma orqali yashiringan harflar topiladi va gap yoziladi.

Darslikda berilgan rasm so'z bilan ifodalanib, maqollar o'qiladi.

**“Bu qiziq”** rukni ostidagi ma'lumotlar ustida ishlanadi.



Tez aytish ayttiriladi.

## **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Qish fasli haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Sizga nima qiziq bo'ldi?

## **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering. Hikoya mazmuniga mos rasm chizing.

#### **4-Mavzu: Zumrad bahor**

##### **Dars maqsadi:**

- Quddus Muhammadiyning "Ko'klamoy" she'ri bilan tanishtirish;
- Bahor faslida tabiatdagi o'zgarishlar haqida ma'lumot berish;
- Ma'nodosh so'zlar topishga o'rgatish;
- Muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

**Tayanch so'zlar:** O'ktamjon, Ko'klamjon, dala-bog', bahor gullari, tabiat uyg'onishi.

**Didaktik materiallar:** mavzuga oid rasmlar.

##### **Darsning borishi:**

##### **I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)**

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashq:** Berilgan so'zlar bir-biriga bog'lab gap tuzing.  
*bog', kurtak, erta.*

##### **II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)**

Hikoyani o'qitiladi va mazmunini so'zlab beriladi.

##### **III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)**

**Amaliy topshiriq.** Yashiringan so'zni toping.

**B+A+T+H+O-T+R**

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qaysi so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'zni qanday topdingiz?

##### **Mavzuni tushuntirish.**

Suhbat o'tkaziladi.

1. Bahor so'ziga ta'rif bering.
2. Bahorda tabiatda qamday o'zgarishlar bo'ladi?